

«MA'QULLANGAN»
“Madad Invest Bank” ATB
Kengashining
2023 yil «__» ____ dagi
— - sonli yig'ilish bayonnomasi
Kengash raisi


M.Sh.Yuldashev

«TASDIQLANGAN»
“Madad Invest Bank” ATB
Boshqaruvining
2023 yil «10 mart dagi
01/19 - sonli bayonnomasi
Boshqaruv Raisi



O.Yu.Ashiraliyev



“Madad Invest Bank” ATB tomonidan jismoniy shaxslarga
quyosh panellari va qayta tiklanuvchi energiya manbasi
vositalari xarid qilish va o'rnatish uchun “Green Power” nomli
iste'mol krediti berish to'g'risidagi

NIZOM

Farg'onha shaxar

OZBEKISTON RESPUBLIKASI ATB "MADAD INVEST BANK" METODOLOGIYA BO'LIMI	
<u>280</u>	RAQAM BILAN RO'YXATGA OLINDI
2023 yil. "10" mart	
Imzo 	

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Iste'mol krediti to'g'risida"gi, "Garov to'g'risida"gi, "Kredit axboroti almashinuvni to'g'risida"gi Qonunlari va amaldagi boshqa qonunlar hamda "Madad Invest Bank" ATB tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlash" Tartibiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bank tomonidan jismoniy shaxslarga quyosh panellari va qayta tiklanuvchi energiya manbasi vositalari xarid qilish va o'rnatish uchun kredit ajratish davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlar majmuini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

- **Bank** - "Madad Invest Bank"ATBning Amaliyot boshqarmasi va hududiylar tarkibiy bo'linmalari;

- **Qarz oluvchi** - 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan, rasmiy ish joyiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan jismoniy shaxs;

- **"Green Power"** nomli iste'mol krediti - "Madad Invest Bank"ATB tomonidan jismoniy shaxslarga quyosh panellari va qayta tiklanuvchi, muqobil energiya manbasi vositalari sotib olish va o'rnatish uchun ajratiladigan iste'mol kreditlari;

- **"Green Power" krediti buyurtmanomasi** - jismoniy shaxslarning quyosh panellari va qayta tiklanuvchi energiya manbasi vositalari sotib olish maqsadida kredit berilishi bo'yicha arizasi.

3. Jismoniy shaxslarga "Green Power" nomli iste'mol kreditlari qaytarishlilik, to'lovililik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish tamoyillari asosida beriladi.

4. "Green Power" krediti O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so'mda, quyosh panellari va qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbasi vositalari sotuvchi (o'rnatib beruvchi)ning bank hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan beriladi.

5. "Green Power" krediti bitta qarz oluvchiga qarz oluvchining kredit layoqatligini inobatga olgan holda eng ko'pi bilan BHM (bazaviy hisoblash miqdori)ning 200 barobarigacha ajratiladi.

6. "Green Power" krediti qarz oluvchilarga shartnomaga asosida 60 oygacha bo'lgan muddatga, imtiyozli davrsiz beriladi.

7. "Green Power" krediti quyidagi asosiy shartlar asosida ajratiladi:

- Qarz oluvchi yaxshi kredit tarixiga ega bo'lishi, xususan qarz oluvchining boshqa banklar (yoki mikrokredit tashkilotlari)dan joriy muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmasligi, qarz oluvchining oxirgi 12 oy davomida 90 kundan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari, oxirgi 5 yil davomida sud jarayonidagi, balansdan tashqari moddalarga o'tkazilgan qarzdorliklari bo'limgan bo'lishi lozim.

- Mijoz kredit olish uchun ariza taqdim etgan vaqtida, ariza taqdim etgunga qadar eng kamida oxirgi 6 oy davomida uzulishsiz doimiy rasmiy ish bilan band bo'lgan bo'lishi lozim.

- Kredit ta'minoti eng kamida kreditning 125 foizini, Bankka aloqador shaxslar uchun esa 130 foizini tashkil etishi lozim.

8. "Green Power" kreditidan foydalanganlik uchun yillik foiz stavkasi - 24.99 foiz. Foizlar kredit berilgan kundan boshlab, kreditning asosiy qarzi so'ndirilguncha bo'lgan davr uchun hisoblanadi.

9. "Green Power" kreditini alohida mijozlar uchun alohida tartibda ajratish, mazkur Nizomda ko'rsatilgan shartlardan boshqacha tartibni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

II. "Green Power" iste'mol krediti rasmiylashtirish tartibi

10. Mijoz tomonidan Bankning mazkur turdag'i iste'mol kreditini olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- a) Kredit buyurtmanomasi, ya'ni mijozning kredit olish to'g'risidagi arizasi;
- b) Qarz oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asli (bank mas'ul hodimi tomonidan nusxa olinadi, unga "*asliga to'g'r'*" deb ustxat yozib, imzosi bilan tasdiqlaydi va xujjatning asli mijozga qaytariladi);
- d) Kredit ta'minoti bilan bog'liq hujjatlar;
- e) Mahsulot (tovar yoki xizmat) etkazib beruvchi va mijoz o'rtasida tuzilgan oldisotdi shartnoma nusxasi.

11. Mijozning daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar Bank tomonidan kredit byurolari yoki boshqa ishonchli manbalardan mijoz roziligi asosida olinishi yoki mijozning o'zi tomonidan u ishlaydigan tashkilot muxri bilan tasdiqlangan holda taqdim qilinishi mumkin. Ushbu ma'lumotnomaga mijoz tomonidan taqdim etilganda, uning haqiqiyligi Bank tomonidan interaktiv imkoniyatlardan foydalangan holda tekshirilishi maqsadga muvofiq. Mijozning daromadlari to'g'risidagi ma'lumot uning kreditga layoqatligini tahlil qilishda foydalaniladi.

12. Zarurat tug'ilganda, bank tomonidan mazkur iste'mol kreditini ajratish doirasida qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin.

13. Mijoz arizasi Bankka kelib tushgach, Bank mas'ul hodimi mijozning buyurtmanomasiga asosan uning kredit tarixini kredit byurosi ma'lumotlariga asosan o'rganadi va mijozning kredit tarixi, o'rtacha bir oylik daromadi, mavjud aktivlari va majburiyatlarni hisobga olgan holda uning kreditga layoqatligini aniqlaydi. Mazkur turdag'i iste'mol krediti ajratilayotganda mijozning qarz yuki ko'rsatkichi 50 foizdan oshmasligi kerak.

15. Kreditni qaytmaslik xatarini oldini olish maqsadida qarz oluvchi ta'minot sifatida Bankka quyidagi garov turlaridan birini taqdim etishi zarur:

- Likvidli mol-mulklar (O'zbekiston Respublikasi "Garov to'g'risida"gi Qonuniga asosan ta'qiqlanmagan ko'char va ko'chmas mulklar) garovi;
- Bank yoki sug'urta tashkiloti kafolati;
- Uchinchi shaxslar kafilligi.

16. Taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida Bankning Kredit bo'limi mas'ul hodimi kreditning maksimal summasini belgilaydi va kredit ajratish maqsadga muvofiq yoki maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida yozma xulosa tayyorlaydi.

17. Kredit komissiyasi kredit berish yuzasidan 3 bank ish kunidan kechiktirmagan holda, qaror qabul qiladi. Bank Kredit komissiyasi arizani rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda,

qaror qabul qilingan kundan keyingi bank ish kunidan kechiktirmagan muddatda mijozga uni berishning rad etish sabablari ko'rsatilgan yozma xabarnoma jo'natadi.

18. Kredit komissiyasining kredit ajratish to'g'risida ijobiy qarori qabul qilingan taqdirda, Bank va qarz oluvchi o'rtaida kredit shartnomasi tegishli tartibda imzolanadi.

19. Kredit mablag'lari alohida ssuda hisobvarag'ini ochish hamda hisobvarag'dan qarz oluvchining yozma arizasiga asosan memorial order bilan naqd pulsiz shaklda ajratiladi.

20. Kredit komissiya/qo'mitasi raisi va a'zolari kredit hujjatlarining to'g'ri shakllantirilishi va mazkur Nizom talablari bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirilishi bo'yicha shaxsan ma'sul hisoblanadi.

21. Kredit ajratilishidan oldin kredit hujjatlari bo'yicha quyudagi talablar bajarilishi lozim:

- Kredit yig'ma jildi hujjatlari to'liqligi;

- Kredit komissiya/qo'mitasi qarori bilan kredit shartnomasining mazmuni o'rtaida muvofiqlik (kredit miqdori, foiz stavkasi, kredit muddati, foydalanish maqsadi, ta'minot va boshqa talablar);

- Barcha shartnomalar (kredit, kafillik, garov, sug'urta va boshqa shartnomalar)ning amalda qonunchilik, mazkur Nizom va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq rasmiylashtirilganligi.

22. Kredit ajratilgandan so'ng kredit ustidan kreditlashning tegishli tarmoq bo'limi hodimi tomonidan doimiy monitoring amalga oshiriladi.

23. Kredit monitoring jarayonida kreditning maqsadli ishlatalishi, mijozning to'lov qobiliyati, taqdim etilgan garov mulki holati va kreditdan samarali foydalanish yuzasidan joylarga chiqib o'rganiladi va monitoring dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Tuziladigan monitoring dalolatnomasiga monitoring jarayonining fotosuratlari ilova qilinishi maqsadga muvofiq.

III. Kreditni so'ndirish tartibi

23. Kredit berishda mijozning doimiy yoki olinishi muqarrar bo'lgan daromadlari kreditni qaytarishning asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Ta'minot kredit to'lashning ikkilamchi manbai bo'lib, Bank tomonidan ta'minotga kreditni qoplashning asosiy manbai sifatida qaralmasligi lozim.

24. Qarz oluvchi kredit hamda unga hisoblangan foizlarni naqd pulda, bank plastik kartochkalari orqali yoki qarz oluvchining omonat hisobvarag'idan pul o'tkazib berish yo'li bilan, shuningdek, infokiosklar, mobil ilovalar yoki boshqa elektron to'lov tizimlari orqali to'lashi mumkin.

25. Agar mijozga ajratilgan kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzlar yuzaga kelsa, bank tomonidan elektron to'lov vositalari orqali qarz oluvchi (kafillik beruvchi) jismoniy shaxslarning nomiga ochilgan istalgan bank plastik kartalari orqali undirib olishga haqli va bu o'z navbatida kredit shartnomasi va kredit shartnomasi yuzasidan tuzilgan kafillik shartnomasi shartlarida nazarda tutilishi lozim.

26. Mijoz kredit to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirmaganda va bank tomonidan elektron to'lov vositalari orqali mazkur qarzdorliklarni undirish imkoniyati mavjud bo'lмаган таqdirda, bank yuzaga kelgan qarzdorliklarni undirish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralarни ko'radi.

IV. Yakuniy qoidalar

27. Mazkur Nizom bilan belgilangan tartib-qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonun

hujjatlari, shu jumladan, Markaziy bank me'yoriy hujjatlari bilan mos kelmagan taqdirda, amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan me'yorlar ustun bo'lib, ularga rioya etiladi.

28. Ushbu Nizom tasdiqlangan va ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kiritildi:

Kreditlash Departamenti
direktori:

A.A.Sotvoldiev

Kelishildi:

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy
hisobot bo'limi departament direktori,
bosh buxgalter

N.Sh.Mo'ydinov

Muammoli kreditlar bilan
ishlash departament direktori:

D.S.Sharipov

G'aznachilik departamenti
direktori:

Sh.A.Yusupov

Yuridik xizmati departamenti
direktori :

A.M.Xamidov

Ichki nazorat boshqarma boshlig'i:
Avtomatlashtirilgan bank tizimlari
boshqarmasi boshlig'i:

O.M.Qodirov

Metodologiya boshqarmasi boshlig'i:

D.Nuraxunov

Sh.A.Salaydinova

1-Ilva
“TASDIQLAYMAN”
“Madad Invest Bank” ATB
Boshqaruvi raisi
O.Y.Ashiraliyev
“ ” 2023 yil

**«Madad Invest Bank» ATB tomonidan jismoniy shaxslarga «Green Power» nomli iste'mol krediti
PASPORTI**

Kredit mahsuloti tasdiqlangan sana	2023 yil ____ mart.
Tushunchalar	Yurtimizda eko olamni saqlashni, tabiiy energiya samaradorligini oshirish hamda resurslarni tejasz maqsadida ishlab chiqilgan bank kredit mahsuloti.
Kredit mahsuloti nomi	“Green power”.
Kredit mahsuloti turi	Iste'mol krediti.
Kredit oluvchilar	18 yoshga to'lgan va 60 yoshdan oshmagan, rasmiy ish joyiga ega O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar.
Kredit valyutasi	O'zbekiston respublikasi milliy valyutasi – so'mda.
Kredit ajratish tamoyillari	Maqsadililik, to'lovililik, muddatlilik, ta'minlanganlik, qaytarishlilik
Kredit muddati	60 oyga qadar.
Imtiyozli davr	Yo'q
Kreditning eng ko'p miqdori	BHM (bazaviy hisoblash miqdori)ning 200 barobarigacha.
Kredit ajratish shakli	Naqd pulsiz shaklda, oldi-sotdi shartnomasiga asosan pudratchi tashkilotning bank xisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan
Kredit yillik foiz stavkasi	24.99%
Kredit maqsadi	quyosh panellari va qayta tiklanuvchi energiya manbasi vositalari xarid qilish va o'rnatish uchun
Kredit ta'minoti	<ul style="list-style-type: none"> -Likvidli mol-mulklar (O'zbekiston Respublikasi “Garov to'g'risida”gi Qonuniga asosan ta'qilanganmaidan ko'char va ko'chmas mulklar) garovi; -Bank yoki sug'urta tashkiloti kafolati; -Uchinchi shaxslar kafilligi.
Qarz oluvchi/kafilga qo'yiladigan talablar	<ul style="list-style-type: none"> -Qarz oluvchi (kafillik beruvchi) yaxshi kredit tarixiga ega bo'lishi lozim; -Qarz oluvchi (kafillik beruvchi)ning boshqa banklar (yoki mikrokredit tashkilotlari)dan joriy muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmasligi lozim; -Qarz oluvchi (kafillik beruvchi)ning oxirgi 12 oy davomida 90 kundan o'tgan muddati o'tgan qarzdorliklari, oxirgi 5 yil davomida sud jarayonidagi, balansdan tashqari moddalarga o'tkazilgan qarzdorliklari bo'lmasligi bo'lishi lozim. -Mijoz kredit olish uchun ariza taqdim etgan vaqtida, ariza taqdim etgunga qadar eng kamida oxirgi 6 oy davomida uzulishsiz doimiy rasmiy ish bilan band bo'lgan bo'lishi lozim.
Kreditni so'ndirilish davriyligi	Asosiy qarz va hisoblangan foizlarni har oyning 15-sanasigacha so'ndiriladi
Taqdim etiladigan xujjatlar	<ul style="list-style-type: none"> -Krediti buyurtmanomasi, ya'ni mijozning kredit olish to'g'risidagi arizasi; -Mijoz shaxsini tasdiqlovchi hujjatining asli (bank mas'ul hodimi tomonidan nusxa olinadi, unga “asliga to'g'ri” deb ustxat yozib, imzosi bilan tasdiqlaydi va xujjatning asli mijozga qaytariladi); -Kredit ta'minoti bilan bog'liq hujjatlar; -Mahsulot (tovar yoki xizmat) etkazib beruvchi va mijoz o'rtaida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi nusxasi.
Kredit arizasini ko'rib chiqish muddati	Barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan vaqtidan boshlab 3 ish kuni davomida.

KELISHILDI:

"TURKSOY BANK"
HTA "Jamiy tervel babaM"

Qo'mita a'zolari:

Rasmiy

Kredit qo'mitasi raisi:

PASPORTI

(imzo)

O.Yu.Ashiraliyev

(imzo)

N.Sh.Mo'ydinov

(imzo)

A.M.Xamidov

(imzo)

A.A.Sotvoldiev

(imzo)

D.S.Sharipov

(imzo)

S.A.Raxmatullaev

(imzo)

M.S.Zaynalov

Kredit qo'mitasi a'zolari:

shaxs deriboz uchun o'sha qo'mitasi a'zolari
sababda qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari

shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari shaxs uchun o'sha qo'mitasi a'zolari